




DEVIANT XULQ-ATVOR VA PROFILAKTIKA MEXANIZMLARI

N. K. Zaretdinova

Ilmiy raxbar: QDU Ijtimoiy fanlar kafedrası

Dotsenti

A. A. Abdullaeva

QDU Tarix fakulteti sotsiologiya yo'nalishi

4- kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18693218>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 12-fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 18-fevral 2026 yil

KEY WORDS

deviant xulq-atvor, ijtimoiy og'ish nazariyasi (E. Dyurkgeym), anomiya konsepsiyasi, differensial assotsiatsiya nazariyasi (E. Sazerlend), ijtimoiy nazorat nazariyasi (T. Hirschi), psixologik moslashuv, ijtimoiy-psixologik profilaktika.

ABSTRACT

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda ijtimoiy o'zgarishlar, axborot oqimi va psixologik bosimlar fonida yuzaga kelayotgan deviant xulq-atvor muammosi yoritiladi. Deviant xulq-atvorning asosiy ijtimoiy-psixologik shakllari, ularning shakllanish omillari hamda jamiyat barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, deviant xulq-atvorni samarali oldini olishga qaratilgan ijtimoiy va psixologik mexanizmlar ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Zamonaviy jamiyatda deviant xulq-atvor - ijtimoiy va psixologik jarayonlarning murakkab kesishmasida paydo bo'ladigan dolzarb ijtimoiy muammo hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar orasida salbiy xulq-atvor shakllanishi jamiyat barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev ham yosh avlodni ma'naviy barkamol yetishtirish, ijtimoiy muammolar, jumladan salbiy xulq-atvorning oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratishni ta'kidladi [1].

Sotsiologik adabiyotlarda deviant xulq atvor tushunchasiga quydagicha tarif beradi. Deviant xulq-atvor jamiyada o'rnatilgan obod meyorlariga to'g'ri kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xulq-atvor ijtimoiy hodisa bo'lib yolg'on gapirish, yalqovlik, dangasalik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plagan ijtimoiy meyor buzilish hodisalari hisoblanadi [2].

Deviant xulq-atvori tushinchasini ilk o'rgangan olimlardan biri Emil "Dyurkgeym bo'lib, u deviant xulq-atvor haqida jamiyatda insonlar faoliyatining xulq-atvorini ijtimoiy normalar boshqaradi. Ijtimoiy norma jamiyat boshqarishning ajralmas bo'lagi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh ko'rinishining tegishli bir ijtimoiy muhitga o'rganuvchi nazariyalar kompleksi bo'lib hisoblanadi [3].

Deviant xulq-atvor bir shaxsning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini, shuningdek, muayyan guruhning o'g'ma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushinchadir. Aksaryat odamlarning tushinchasiga mos kelmaydigan xatti-harakatlar deviant dep ataladi. Sotsiologiyada ijtimoiy

meyordan og'ish holatlarini tushintiruvchi daslabki ta'limot, Emil Dyurkgeymning "anomiya" nazariyasi bo'ldi.

E.Dyurkgeym fanga o'zi kiritgan "anomiya" atamasi tufayli qonunchilikni, qonunlarni tan olmasligi va ularga amal qilinmasligini tushintiradi. Bu borada E.Dyurkgeymning to'rtta asari chop etilgan bo'lib, shulardan biri «O'z joniga qasd qilish» (1897) kitobi deviantlik muommasiga bag'ishlanadi. Bu g'oyani zamonaviy sotsiologiyada P.Sotis, M.Klaynerd va boshqalar rivojlantirib kelgan. Amerika sotsiologiyasida muhim o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri E.Saterlendning differencial aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan, deviant xulq-atvor ham o'rganiladi, ya'ni mavjud ja'miyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshqalarga o'rgatiladi. Deviant xulq-atvor muommolarni tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi.

E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, R.Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatida e'lon qilingan qadiryatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvori motivlari ham da mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir». [4]

Travis Hirschi ijtimoiy nazorat nazariyasi orqali deviant xulq-atvorning oldini olish mexanizmlarini ilmiy asoslaydi. U fikricha, shaxsning jamiyat bilan bog'langan bog'liqligi, ya'ni oilaviy munosabatlar, do'stlar guruhi bilan aloqalar, maktab va boshqa ijtimoiy institutlar bilan mustahkam aloqalar, deviant xulq-atvor sodir bo'lish ehtimolini kamaytiradi. Hirschi nazariyasida shaxsni ijtimoiy tizim bilan bog'laydigan to'rt - attachment (muhabbat va ijobiy munosabatlar), commitment (shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlar), involvement (ijtimoiy faoliyatda ishtirok) va belief (ijtimoiy qadriyat va me'yorlarga e'tiqod) elementlaridan iborat. Agar bu to'rt zaiflashsa, individ deviant yo'lga moyil bo'ladi. Shu tariqa, Hirschi deviant xulq-atvorni tushunishda va oldini olishda ijtimoiy bog'liqlikni mustahkamlashning asosiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Travis Hirschi (1969) ijtimoiy nazorat nazariyasida shunday deydi: shaxs jamiyat bilan bog'langan qanchalik kuchli bo'lsa, deviant xulq-atvor sodir bo'lishi shuncha kamayadi"[5].

Zamonaviy jamiyatda deviant xulq-atvorning paydo bo'lishi ko'pincha shaxsning ichki va tashqi muhitga moslashish qobiliyati, ya'ni psixologik moslashuv bilan chambarchas bog'liq. Psixologik moslashuv - individning stress, frustratsiya va ijtimoiy bosimlarga qarshi reaksiyasini boshqarish, ijtimoiy me'yorlar bilan uyg'unlashish qobiliyatidir (Lazarus & Folkman, 1984). Moslashuv qobiliyati yetarli bo'lmasa, shaxs deviant xulq-atvorga moyil bo'ladi, bu esa ijtimoiy va psixologik muammolarni kuchaytiradi. Shu bois ijtimoiy-psixologik profilaktika mexanizmlari zarur bo'ladi. Bu mexanizmlar oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalari, psixologik maslahat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali deviant xulq-atvorni kamaytirishga qaratiladi (Hirschi, 1969; Sutherland, 1947). Profilaktika nafaqat shaxsni ijtimoiy me'yorlarga moslashtiradi, balki jamiyat barqarorligi va yoshlar ma'naviy barkamolligini ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda deviant xulq-atvor ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy me'yorlarning buzilishi, ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi hamda shaxsning psixologik moslashuv darajasining pastligi deviant xulq-atvorning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. E.Dyurkgeymning anomiya nazariyasi, R.Merton, E.Saterlend va T.Hirschi qarashlari deviant xulq-atvorni ilmiy jihatdan tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Hirschining ijtimoiy nazorat nazariyasi deviant xulq-atvorni oldini olishda shaxsning jamiyat bilan bog'liqligini mustahkamlash muhimligini ko'rsatadi. Shu bois, ijtimoiy-psixologik profilaktika mexanizmlarini rivojlantirish, oilaviy

tarbiya, ta'lim muassasalari va psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish jamiyat barqarorligi va yoshlar ma'naviy barkamolligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. S.Nosirxo'jaev, T.Sultonov, S.Tursunova. «Sotsiologiya» Darislik.-T.: 2009.-B.145
3. Экономика труда и социально-трудовые отношения; учеб-метод пособие / Н. И. Есинова. -Х.: ХГУПТ 2013. – 397с
4. R. Merton Socioalnaya struktura I anomiya 1992. N 3-S. 52
5. Xirshi T. Causes of Delinquency. Berkeley: University of California Press, 1969
6. N.Zaretdinova "Xotin-qizlar jinoyatchiligi". International scientific journal «Modern science and research» volume 3 / issue 10 / uif:8.2 / modernscience.uz. 2024. page 753-758.



**INNOVATIVE
ACADEMY**